



TURIZMNING RIVOJLANISHINI BARQARORLASHTIRISHDA PROGNOZLASHNING MOHIYATI VA OBYEKTI

Ahmadjonov Ahmadjon

Farg'ona politexnika instituti 4-kurs talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada turizmning barqaror rivojlanishi uchun prognozlash mohiyati va ahamiyati haqida yoritib beriladi. Shuningdek turizmga prognozlash qanchalik muhimligi haqida yetarlicha ma'lumot berilgan.*

Kalit so'zlar: *Bozor iqtisodiyoti, prognoz funksiyalari, Ekstropoliyatsiya, modellashtirish*

Milliy iqtisodiyotning eng tez o'sayotgan segmentlaridan biri bu turizm xizmatlari sanoatidir. Mazkur biznesning rivojlanishi bilan birga yangi ish o'rinlari yaratilmoqda, infratuzilma ob'ektlari modernizatsiya qilinmoqda. Shu munosabat bilan O'zbekistonning turizm industriyasini iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri darajasida yuksaltirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. Buning natijasida hududlar tez rivojlanishi, aholi daromadlari va turmush darajasi yuksalishi, iqtisodiyot sarmoyadorlar uchun yanada jozibador bo'lishi mumkin. Davlatimiz turizm sohasini rivojlantirish borasida qator tashabbuslarni amalga oshirmoqda. Oxirgi ikki-uch yil ichida mahalliy va xalqaro sayyohlarga ko'rsatilayotgan xizmatlar ko'lami hamda ushbu xizmatlar sifatida jiddiy o'zgarishlar ro'y berdi. Ma'sul shahslar tomonidan bir qator huquqiy hujjatlar yangilandi va sayyohlik xizmatlari darajasini oshirish maqsadida takomillashtirishlar amalga oshirildi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad mamlakatimizga tashrif buyuruvchilar sonini ko'paytirish, shu bilan birga aholi daromadlarini oshirish, iqtisodiyotni yanada yuksaltirish va mamlakat sarmoyaviy jozibadorligini oshirishdan iborat. Ma'lumki, tizimli yondashish - bu tadqiqot uslubiyotidagi yo'nalishdir. U ob'ektni ko'p sonli ichki va tashki aloqalardan iborat bo'lgan elementlardan tashkil topuvchi murakkab tizim sifatida o'rganishga tayanadi. Tizimli yondashish ob'ektni chuqur va atroflicha o'rganishga, u haqida to'la tasavvurga ega bo'lishga, uning alohida birliklari orasidagi sabab-oqibat bog'lanishlarini aniqlashga imkon beradi. O'zbekiston Respublikasida turizm sohasidagi siyosat Oliy Majlis tomonidan belgilab beriladi. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 18 iyuldagi «Turizm to'g'risida»gi qonuniga muvofiq mamlakatimizda turizmni boshqarish va rejalashtirish organlari tizimi yaratilgan va faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Turizm sohasida markaziy davlat ijroiya hokimiyati organi sifatida O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligi belgilangan. U quyidagi vazifalarni bajarishi kerak:

- turizm sohasida davlat siyosatini amalga oshiradi;
- turizm masalasi bo'yicha qonunchilik va me'yoriy hujjatlarning loyihalarini tayyorlashda ishtirok etadi;



ichki va xalqaro turizmning istiqbolli yo'nalishlarini belgilab beradi va bajarilishini ta'minlaydi;

axborot, reklama va noshirlik faoliyatini tashkil qiladi;

turistik xizmatlar bozorida raqobatni vujudga keltiradi;

turistik faoliyatni litsenziyalash va litsenziyadan mahrum qilishni amalga oshiradi;

turistik xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etadi;

turizm sohasidagi tashqi iqtisodiy faoliyatda ishtirok etadi.

Turistik faoliyatning davlat reestri ushbu faoliyat bilan shug'ullanuvchilarning hisob-kitobini olib boradi.

Turistik xizmatlarga bo'lgan talabni o'rganish va bashorat qilish, talab va taklif o'rtasidagi muvozanatni saqlash, turizmni uning barcha bosqichlarida rivojlantirish uchun firma qoshida turizmni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot konsalting markazi tuzilgan.

Milliy, mintaqaviy va mahalliy bosqichlarda turizmni rejalashtirish jarayoni quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi. Ko'rsatilgan bosqichlarning har birini tavsiflaymiz:

1. Rejalashtirishning maqsadlari, yo'nalishlari va vazifalarini belgilab olish. Turli ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarga mos ravishda va turizmga yetishi mumkin bo'lgan minimal salbiy ta'sirlarni hisobga olgan holda turizmni rivojlantirish zaruriyati, imkoniyati va yo'llari baholanadi.

2. Tadqiqotni tayyorlash. Turizmni rivojlantirish sohasidagi istiqbollar ochib beriladi va mo'ljallar belgilab olinadi, iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy muammolar, shuningdek, eng muhim institutsional elementlar (tashkil qilish va boshqarish, qonunchilik va me'yoriy hujjatlar, investitsiyalarni jalb etish va boshqalar) ko'rib chiqiladi. Rejani bajaruvchilarni tanlab olish, mahalliy hokimiyat organlari va jamoatchilikni jalb qilish, tadqiqotni o'tkazishni tashkil qilish amalga oshiriladi.

3. Rejalashtirishning barcha elementlarini tadqiq etish. Bunda turizmning barcha jihatlari (geografiya, raqobatlashuvchi turistik firmalar, turistlarning kelishidagi tendentsiyalar, mavjud va potensial diqqatga sazovor joylar, joylashtirish, transport ovqatlanish vositalari va boshqalar) bo'yicha miqdoriy va sifat omillari va ko'rsatkichlari aniqlanadi, bevosita joyning o'zida obyektlar tadqiq etiladi, hujjatlar o'rganiladi, mahalliy hokimiyat organlari va jamoatchilik vakillari bilan munozarali kengashlar o'tkaziladi.

4. Tahlil va sintez. Turizmning rejalashtirilayotgan turining barcha tashkil etuvchilarini tadqiq qilish natijasida olingan axborotni sifat va son jihatidan qayta ishlash amalga oshiriladi, shuningdek ishlarning holatini yanada to'liqroq tushunish uchun tahlilning turli komponentlari birlashtiriladi va integratsiya qilinadi. Turizm bozorining kon'yunkturasi va uni iqtisodiy ta'siri, turizmning institutsional elementlari va boshqalar tahlil qilinadi.



Turizmni rivojlantirishning asosiy imkoniyatlari, unda muammolar va to'sqinlik qiluvchi omillar aniqlanadi, turistik biznes sifatini pasaytiruvchi to'siqlarni bartaraf etish bo'yicha zarur tavsiyalar ishlab chiqiladi. O'xshash turistik mahsulotlar va bozorlarga ega mavjud va ehtimol qilingan potentsial raqobatchilarning faoliyati hisobga olinadi.

5. Siyosat va rejani ishlab chiqish. Turizmni rivojlantirish siyosati va tegishli tarkibiy reja ishlab chiqiladi. Birinchi navbatda rivojlantirishning sarf-xarajalar va foyda muvozanatda bo'ladigan muqobil variantlari ko'rib chiqiladi. Bunda quyidagi mezonlar qo'llaniladi: rivojlantirish masalalarini hal qilishning ehtimol tutilgan murakkabligi, iqtisodiy foydalarni optimallashtirish, ijobiy ekologik va ijtimoiy-madaniy omillarni kuchaytirish, salbiylarining ta'sirini eng kam darajaga yetkazish, boshqa turistik korxonalar bilan samarali raqobat qilish. Ko'p variantli baholash asosida siyosatning so'nggi yo'nalishlari va reja tuzilishi aniqlab olinadi.

Rejalashtirishning ushbu bosqichida turizmni rivojlantirish va takomillashtirishning eng maqsadga muvofiq modellarini qabul qilish uchun mahalliy hokimiyat organlari va boshqa manfaatdor tomonlar bilan mustahkam aloqa bog'lash zarur.

6. Boshqa tavsiyalar. Ko'p variantli modellar tuziladi va ulardan eng maqsadga muvofiqlari tanlab olinadi.

7. Rejani bajarish va nazorat qilish. Rejaning so'nggi varianti haqqoniy va bajarish mumkin bo'lishi uchun zarur bo'lgan rejani amalga oshirish modellari ishlab chiqiladi.

Rejani amalga oshirish bo'yicha ishlar davomida uni bajarish muddatlari va bo'limlari bo'yicha nazorat qilinadi. Bu yo'l qo'yilgan chekinishlarni aniqlash va ularni bartaraf qilish bo'yicha tezkor choralar qabul qilishga imkon beradi.

Turizm turistik xizmatlarni ishlab chiqarish va xaridorlarga kerakli vaqt, miqdor va sifatda, shuningdek yuqori samara hamda foyda evaziga sotishni tashkil etish va boshqarish maqsadida vujudga keldi va xizmat qilmoqda. Iqtisodchi olimlar ta'kidlashlaricha turistik xizmatlardan foydalanish jamiyat, xaridorlar, ishlab chiqaruvchilar va nihoyat, turistik firmalarining o'zlariga ham benihoya katta foyda keltirar ekan. Bozor iqtisodiyoti o'z mohiyatiga ko'ra har qanday jismoniy va yuridik shaxslar o'z faoliyatlaridan naf ko'rishlari, ma'lum daromad olishlari va samarali ish yuritishlarini taqozo etadi. Yuqoridagi ta'rif turistik xizmatning mohiyatini to'laroq aks ettiradi deb o'ylaymiz. U ingliz iqtisodchisi Yedjeni Makkartining mashhur «4 r», ya'ni tovar yoki xizmat (rprodukt), baho (rprice), foyda (rprofit) va tovarni sotish joyi (bozor-rplace) moduliga ham to'g'ri keladi.


Kelajakni oldindan ko'rmasdan, uning rivojlanish yo'llarini prognozlashtirmasdan jamiyat hayoti taraqqiyotiga erishish mumkin emas. Oxirgi yillarda prognozlash iqtisodiyotning maqbul darajada ishlashini ta'minlashning asosiy vositalaridan biriga aylanmoqda. Boshqaruvning



murakkab jarayonida prognozlash jamiyat ishlab chiqarishi va uning maqsadlarini ilmiy asoslashda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo'llarini oldindan ko'rish vositasi vazifasini bajaradi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy prognozlash uzoq va o'rta muddatli iqtisodiy samarador yo'nalishlar, texnik siyosat va qabul qilingan qarorlar amaliyotda qay ahvoldaligini ko'ra bilish uchun zarur.

Turizm rivojlanishini prognozlash deganda - ob'ektning ilmiy asoslangan kelajakdagi holati haqidagi va uni amalga oshirish yo'llari va sarflangan vaqtni oldindan bilish tushuniladi. Prognozlarni ishlab chiqish jarayoni prognozlash deyiladi. Prognozlashning asosiy yo'nalishlaridan biri iqtisodiy prognozlash hisoblanadi. Turizm rivojlanishini prognozlash - bu, ilmiy - iqtisodiy fan bo'lib, uning ob'ekti iste'molchilar, ishlab chiqarish jarayoni, predmeti esa ishlash mumkin bo'lgan iqtisodiy ob'ektlarning qonuniyligi va iqtisodiy prognozlarni ishlab chiqish yo'lidagi izlanishlardir.

Turizm rivojlanishini prognozlash jamiyat rivojlanishi qonuniyligi sohasidagi iqtisodiy fan yutuqlariga va bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy va fan - texnika taraqqiyoti tendentsiyalarining aniqligiga asoslanadi.



Shundan kelib chiqib, iqtisodiy prognozlarga quyidagicha ta'rif berish mumkin.

Iqtisodiy prognozlash – bu, iqtisodiy jarayonlarni bilishning ilmiy usullari hamda prognozlashning barcha usul va yo'llari yig'indisini qo'llash orqali iqtisodiy prognozlarni ishlab chiqishidir. Iqtisodiy prognozlashning nazariy muhim muammolaridan biri prognozlar turlarining tuzilishi hisoblanadi. Turlar - har xil mezonlar va belgilariga asoslanib qurilishi mumkin. Masalan, ob'ektlarga, prognozlash usullariga, yechiladigan masalalarga, vazifalarga va boshqalarga. Bulardan eng muhimlariga quyidagilar kiradiprognozlash ko'lami;

- prognozlash muddati;



- ob'ekt xarakteri;
- prognoz funksiyalari (funktional belgi).


Tuzilish muddati bo'yicha prognozlar operativ, qisqa muddatli, o'rta muddatli, uzoq muddatli va o'ta uzoq muddatli turlarga bo'linadi. Prognozlarning izlanilayotgan ob'ekt xarakteriga ko'ra bo'linishlari har xil qayta ishlab chiqarish jarayonlari bilan bog'liq. Shunga ko'ra, prognozlash quyidagilarga ajratiladi. Prognozlar funksional belgisiga qarab ikkiga - normativ va izlanuvchi prognozlarga bo'linadi.


Izlanuvchi prognozlar: izlanayotgan ob'ektlarning kelajakdagi rivojlanish darajasiga asoslangan bo'lib, bu darajalarni qo'llash sharoitlaridan cheklashadi. Uning vazifasi o'rganilayotgan ob'ekt bor tendensiyalar saqlangan holda qanday rivojlanishini o'rganishdir.

Normativ prognozlar: izlanuvchi prognozlaridan farqli o'laroq oldin qo'yilgan maqsadlar bazasida ishlab chiqiladi. Uning vazifasi maqsad qilib olinayotgan ob'ektning kelajakdagi holatini prognozlash yo'li va erishish vaqtini aniqlashdir. Izlanuvchi prognozlar ob'ektning oldingiga nisbatan kelajakdagi holatini aniqlashdan qaytayotgan bir vaqtda, normativ prognoz teskari tartibda amalga oshiriladi, ya'ni kelajakdagi holatini qo'yilgan maqsadining tendensiyalari va uni qo'llash tartibida amalga oshiriladi. Ko'p prognoz turlari va prognozlash texnikasi bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Uchta prognozlash texnikasi bir-birini to'ldiradi. Prognozlash texnikasi turizm sanoati qanday rivojlanishini bashorat qilish uchun juda muhimdir.

Usul – bu, o'rganish yo'llari va usullarini tanlash hamda shu tarmoqdagi haqiqat ko'rinishlarini umumiy lashtirishdir.

Prognozlashning turlari:





Har qanday fanda bo'lgani kabi, iqtisodiy prognozlashning yondashuvi dialektik yondashuv bo'lib, u ko'rib chiqilayotgan elementlar va ko'rinishlarning ildiziga kirish uchun izlanayotgan ob'ektlarni ko'rib chiqadi. U iqtisodiy hodisalarni ilmiy prognozlash asosidagi ixtisoslashtirilgan protseduralar va umumiy ilmiy tadqiqot metodologiyasi va yondashuvlariga asoslanadi. Quyidagi texnikalarni keng strategiyalardan ajratish mumkin:

- keng qamrovli usul; - tarixiy yondashuv;
- uslubiy yondashuv;
- tarkibiy strategiya;
- tizimli, tizimli yondashuv.

Ilmiy va ilmiy bo'lmagan prognozlash hozirda prognozlashning 2 turidan foydalaniladi. Kelajakga qaratilgan ilmiy baholashlarga quyidagilar kiradi: Oldindan aytib berish - bu kelgusidagi muammoni hal qilishning mumkin bo'lgan yoki istalgan prognozda holatini bayon qilishdir. Boshqacha qilib



aytganda, oldindan aytib berish - kelgusida bo'ladigan ma'lum jarayonlarning holati haqidagi ishonchli fikrni bildiradi.

Oldindan ko'ra bilish - tizimni rivojlantirishning qonuniyatlariga asoslangan, haqiqatni, oldindan aks ettirishdir. Bu narsa tizimning kelgusidagi holati haqida ma'lum xulosa chiqarish imkonini beradi.

Prognozlash (bashorat) - bu ehtimol yo'nalishlar, ob'ektlar va hodisalarning rivojlanishi natijalari. Prognozlash - bu ob'ektni rivojlantirish prognozini belgilab beradigan maxsus ilmiy tadqiqotlardir.

Rejalashtirish - bu aniq belgilangan maqsad, uni amalga oshirishning yo'llari va tadbirlari, belgilangan xom ashyolar bilan ajralib turadi.

Reja - yakka yagona, ijrosi majbur bo'lgan direktiv hujjatdir.

Shunday qilib rejalashtirish, prognozlash, oldindan aytib berish, oldindan ko'ra bilish - kelajakni baholashning ishonchlilik darajasiga qarab biri biridan farq qiladi. Avvalo iqtisodiy tizimni rivojlantirishning maqsadi aniqlanadi. Qo'yilgan maqsadga kelajakda bo'lishi mumkin holatlar o'rganilib, prognoz qilinadi. Prognozlash jarayoni ob'ektni tahlilidan boshlanadi. Bu tahlil ob'ektni tanlash, prognozlash maqsadida, ob'ektga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish, uning tarkibi, boshqarish usullarni o'rganishdan iborat. Iqtisodiy tizim juda katta va murakkab bo'lgani uchun uni o'rganishda tizimli tahlil usuli qo'llanadi. Bu usulni asosiy tamoyillari quyidagicha:

1. Murakkab tizim juda ko'p elementlardan iborat. Bu elementlar bir-biri bilan bog'langan bo'lib, murakkab strukturani tashkil etadi.

2. Murakkab tizim yaxlitlik xususiyatiga ega. Bunday tizimlar har doim maqsadga intilgan bo'ladi, samarali holatga erishishga harakat qiladi.

3. Tizim kirish va chiqish yo'llari orqali tashqi muhit bilan bog'langan.

Xulosa qilib ayta olamanki, tizimli yondoshishning asosiy xususiyati - bu tizim elementlarining o'zaro ta'siri, o'zaro bog'liqligi, o'zaro bog'lanishi va dinamik xarakterda bo'lishi, kompleksligi, butunligi, bo'ysunganligi, yetakchi bo'g'inni ajralganligidir. Tizimli yondoshish iqtisodiy tahlilda xo'jalik masalalarining ilmiy asoslangan variantlarini ishlab chiqish va bu variantlarni samaradorligini hisoblash yo'li bilan eng makbul boshqarish qarorlarini tanlash imkonini beradi. Shu tufayli Turizm sohasida uzluksiz rivojlanish boladi. Turizm miqyosida butun jahon mamlakatlariga yetib chiqa olishimiz mumkin, rivojlanish ustunlashib iqtisodiy barkamollik ortadi. Kutilayotgan natijaga erishish bo'ladi va turizm sohasi uzluksiz o'siah bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xalqaro bozorda milliy turizm . O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi, 2001. №1-2.
2. Xalqaro turizm ning Ispaniya iqtisodiyotidagi ahamiyati. O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi, 2001. № 7 -8.



3. Xalqaro turizm iqtisodiy rivojlanish vositalaridan biri. O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi, 2001. № 11-12.
4. Алиева М .Т . Р азвити я ин дустрии туризм а. «Международные Плехановские чтения», 19 апреля РЭА. им. Г. В. Плеханова, 2006
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida" 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son Qarori.